



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR MULOQOTINING RIVOJLANISHIDA KLASTERLI YONDASHUV

Jualiyeva Maryam Toxir qizi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti talabasi

djualiyevamaryam@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7359405>

ARTICLE INFO

Received: 15th November 2022

Accepted: 24th November 2022

Online: 25th November 2022

KEY WORDS

Klaster, muloqot, ijtimoiylashuv, ehtiyoj, ob'ekt, tizimli, salbiy, munosabat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar muloqotining rivojlanishida klasterli yondashuvning samarasi va bola ijtimoiylashuvi jarayoni optimallashtirishda bir-biriga bog'liq ob'ektlarning tizimli vazifalari haqida mulohazalar yoritilgan. Ta'riflab o'tilgan tafsirlar maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi pedagoglari, metodistlarning ish faoliyati shuningdek otaonalarining tajribalarini o'rganish tufayli yoritildi.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotiga qamrab olish bo'yicha juda ko'p yaxshi tajribalarga egamiz. Bolalarni bog'chaga qabul qilishdan oldin ota-onalar bilan tanishish, ulardan bolaning bog'chaga kelgungacha shakllangan ehtiyojlari haqida ma'lumot olish amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Ta'lim tizimida klaster asosida bolalarning muloqotga bo'lgan ehtiyojini rivojlanishi hamda ijtimoiylashuvda ushbu usulining samarasi haqida alohida to'xtalib o'tish lozim. Klaster atamasi ingliz tilida "cluster" so'zidan olingan bo'lib, guruh, to'plam, shoda degan ma'nolarni anglatadi. Klaster atamasi ilk bor amerikalik iqtisodchi, garvard maktabi professori Maykl Yujin Porter tomonidan qo'llanilgan. U klasterga bir-biriga yaqin bo'lgan, muayyan sohada faoliyat olib boradigan hamda bir-birining ishini to'ldiradigan tashkilotlar birlashmasi sifatida ta'rif beradi.

«Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi qarorida milliy-madaniy, tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi o'quv metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni tayyorlash hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatiga joriy etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifalari belgilab berildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari" to'grisidagi 1059-son qarori shuningdek O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'grisida»gi qonuniyg 4-moddasida har bir bolaning iste'dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi,



maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish oila hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyaviy ta'sirining birligi keltirilgan.

Pedagogikada "klaster" "tarmoqlar metodi texnologiyasi" deb ham ataladi va bu metod mantiqiy fikrlash, umumiy fikrlash doirasini kengaytirish, bolalarning mustaqil fikrlash faoliyatini jadallashtirishga xizmat qiladigan usul ma'nosida qo'llaniladi. Biroq bugungi kunda "klaster"ning ma'nosi faqatgina shulardan iborat desak noto'g'ri bo'ladi albatta. Pedagogik ta'lim klasteri uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha ta'lim turlari maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila, mahalla, ularning birgalikdagi vazifalari taqsimlangan faoliyati pedagogik ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish imkonini beradi. Bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelganiga qadar bo'lgan davrda ijtimoiylashuvi uning muloqotga bo'lgan ehtiyojining o'z vaqtida qondirilmasligi, muloqot doirasining torligi uning yangi jamoaga moslashuvining qiyinlashishiga olib keladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish borasida sahnalashtirilgan o'yin faoliyati turlari amalgam oshiriladi. Sahnalashtirilgan o'yin faoliyati shakllari bir necha xil bo'lib u o'zining barcha turlari bilan bolalarni badiiy tarbiyalash, estetik rivojlantirishga ko'maklashadi. Ularni yangi taassurotlar bilan boyitadi, avval egallagan bilimlarini mustahkamlaydi, faollashtiradi, tashabbuskorligi, nutqi, badiiy didini rivojlantiradi.

Bolaning ijtimoiylashuv davri bu nafaqat bog'cha yoshida amalga oshiriladigan jarayon, balki ungacha bo'lgan davrda amalga oshiriladigan jarayondir. Afsuski, ayrim oilalarda ota-onalar bolaning

muloqot doirasini toraytiradilar, boshqa kattalar bilan muloqotga bo'lgan ehtiyojini rivojlantirishga urinmaydilar. Shunday holatlar ham borki, bolada begonalarga nisbatan salbiy munosabatni uyg'otadilar bu holat bolaning ijtimoiylashuvi uchun qanchalar zararli ekanligini ota-onalar bilmaydilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelayotgan bolaning muloqot doirasi qanchalar tor bo'lsa, bolaning yaqinlari qanchalik kam bo'lsa bolaning muloqot tajribasi ham shunchalik kam bo'ladi va begonalar bilan aloqa o'rnatish ham shunchalik qiyin kechadi.

Bunday bolalar begona bo'lgan kattalardan nariroq yurishadi, uyalishadi, ko'zini yerga qaratib olishadi, shunday bolalar borki tarbiyachi bilan muloqotdan qo'rqishadi. Bunday bola yakkalanishga harakat qiladi, muomalaga kirishga qiynalayotgan begonalarni ko'rmaslik uchun yuzini yerga qaratib oladi. Tarbiyachi bola bilan birinchi kuniyoq aloqa o'rnatishi lozim lekin bolada notanishlar bilan muloqot tajribasi bo'lmasa u tarbiyachining barcha harakatlariga salbiy javob qaytaradi: yig'laydi, qo'ldan otilib chiqib ketadi, tarbiyachidan uzoqlashishga harakat qiladi. Bu belgilar bolada begona yoshi kattalar va bolalar bilan muloqotga bo'lgan ehtiyoj rivojlanmaganligini ko'rsatadi Oilaning tor sharoitlarida shakllangan muloqot tajribasi shunga olib keladiki bola o'zidagi kattalar bilan birgalikdagi harakatlar tajribasini yangi sharoitga ko'chirishga qiynaladi va bu uning xavotirini kuchaytiradi. Bolaning muloqot doirasini klasterli yondashuv asosida kengaytirishda unga aloqador bo'lgan barcha ob'ektlarning ya'ni oila a'zolari, oilaning yaqinlari (qarindoshlar, qo'shnilar, mahalladagi qo'shni tengdoshlari), maktabgacha ta'lim tashkiloti, axborot vositalarining faol



ishtiroki ta'minlanadi. Bola ijtimoiylashuviga va muloqotga bo'lgan ehtiyoji qondirilishida klasterli yondashuv ya'ni unga aloqador bo'lgan barcha ob'ektlarning birgalikdagi vazifalarining tizimli amalga oshirilishida albatta samarali natijani kuzatishimiz mumkin.

Bog'chaga kelgungacha bolaning atrofdagilar bilan muloqotdagi tajribasi

bog'cha sharoitiga ko'nikish xarakterini belgilaydi. Shu sababdan bolaning muomalaga bo'lgan ehtiyoji mazmunini bilish moslashish davrida unga ko'rsatiladigan pedagogik ta'sirning xarakterini belgilashda asosiy omil hisoblanadi.

References:

1. "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qarori PQ-4312-son 08.05.20193.
2. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1059-son qarori 31.12.2019
3. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi. Toshkent – 2018 yil.
4. Qayumova. N. "Maktabgacha pedagogika" T.: TDPU 2013 O'quv qo'llanma
5. "Pedagogik ta'limda klaster" " SCIENCE AND EDIKATION" SKIENTIFIK JOURNAL Q.Sh.Maxmudov Z.I.Sanaqulov 2020 oktyabr.